



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil yanvar-aprel




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-aprel oylari)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 65,7 %**



**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
2 534,1 ming so'm**




**Jami korxonalarda
xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi – 75,2 %**




**Xizmatlar
hajmi
10 688,7
mlrd. so'm**

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-may holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-aprel oylari)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-may holatiga ko'ra)



Soni, birlikda

2024-y.

25 219

2023-y.

25 961

2022-y.

27 977

2021-y.

21 730

2020-y.

16 588

Soni, birlikda

2024-y.

1 845

2023-y.

1 913

2022-y.

3 026

2021-y.

1 789

2020-y.

1 699

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-aprel oylari)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



■ Hajmi, mlrd. so'mda 🏠 O'sishi (kamayishi)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024-yil yanvar-aprel oylarida)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	10 688,7	100,0	113,4
Samarqand sh.	4 426,8	41,4	119,4
Kattaqo'rg'on sh.	294,7	2,8	112,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	321,0	3,0	107,6
Bulung'ur	282,4	2,6	108,0
Jomboy	445,8	4,2	107,6
Ishtixon	379,3	3,5	107,1
Kattaqo'rg'on	373,0	3,5	107,2
Qo'shrabot	203,1	1,9	107,3
Narpay	344,5	3,2	107,5
Payariq	460,2	4,3	107,6
Pastdarg'om	742,5	7,0	109,9
Paxtachi	214,8	2,0	107,7
Samarqand	809,5	7,6	117,8
Nurobod	210,3	2,0	108,1
Urgut	752,3	7,0	108,3
Toyloq	428,5	4,0	109,9

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Samarqand sh.	7 547,8	116,9 %
Kattaqo'rg'on sh.	3 101,9	111,1 %
Samarqand	2 959,8	115,4 %
Jomboy	2 345,3	105,0 %
Toyloq	1 933,7	107,2 %
Pastdarg'om	1 933,1	107,5 %
Oqdaryo	1 848,3	105,1 %
Payariq	1 679,6	105,0 %
Narpay	1 512,4	105,6 %
Qo'shrabot	1 429,3	105,3 %
Paxtachi	1 408,9	106,0 %
Bulung'ur	1 394,6	105,6 %
Ishtixon	1 371,7	104,9 %
Urgut	1 341,6	105,7 %
Nurobod	1 291,0	106,0 %
Kattaqo'rg'on	1 266,9	105,1 %

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024-yil yanvar-aprel oylari)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	10 688,7	100,0	113,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	501,1	4,7	117,5
Moliyaviy xizmatlar	1 691,1	15,8	112,0
Transport xizmatlari	2 593,7	24,3	110,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 351,0	22,0	110,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	555,1	5,2	115,8
Savdo xizmatlari	2 729,6	25,5	112,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	264,1	2,5	116,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	554,0	5,2	136,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	223,1	2,1	123,0
Ijara xizmatlari	290,9	2,7	112,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	302,7	2,8	108,4
Shaxsiy xizmatlar	469,2	4,4	108,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	173,8	1,6	118,3
Boshqa xizmatlar	340,3	3,2	110,9


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)

2024-yilning yanvar-aprel

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining to'rttan uch qismini, ya'ni **71,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-aprel oylari)




Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	963,8	118,3
Kattaqo'rg'on sh.	75,9	106,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	94,7	107,0
Bulung'ur	81,6	111,8
Jomboy	144,2	105,9
Ishtixon	119,3	108,7
Kattaqo'rg'on	109,1	108,7
Qo'shrabot	60,6	107,1
Narpay	101,3	107,5
Payariq	108,0	108,8
Pastdarg'om	207,6	115,4
Paxtachi	53,8	109,8
Samarqand	256,6	112,4
Nurobod	58,4	115,5
Urgut	185,3	108,3
Toyloq	109,4	101,7

2024-yilning yanvar-aprel oylarida transport xizmatlari hajmi **2 593,7** mlrd. so'mni, **2023-yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **110,5 %** ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **24,3 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)



Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	869,3	115,9
Kattaqo'rg'on sh.	73,5	119,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	104,4	106,9
Bulung'ur	73,5	107,0
Jomboy	139,8	107,6
Ishtixon	112,3	106,7
Kattaqo'rg'on	114,6	107,0
Qo'shrabot	60,7	106,4
Narpay	113,1	107,2
Payariq	114,6	107,4
Pastdarg'om	182,2	107,7
Paxtachi	64,7	106,4
Samarqand	208,0	109,7
Nurobod	53,8	106,5
Urgut	192,7	107,6
Toyloq	116,5	107,6

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)

2024-yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 351,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **22,0 %** ni tashkil etdi.




Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

(2024-yil yanvar-aprel oylari)



Yo'lovchi tashish

73,5 %



Yuk tashish

26,5 %


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-aprel oylari)




2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2024-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 070,8** mlrd. so'mga oshib, **1 691,1** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **15,8** foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,0** % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-aprel** oylarida ularning ulushi **91,8** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	139,5	129,6
Kattaqo'rg'on sh.	15,5	116,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	19,1	112,4
Bulung'ur	20,6	114,2
Jomboy	19,5	112,2
Ishtixon	25,6	109,7
Kattaqo'rg'on	27,1	109,1
Qo'shrabot	13,8	117,4
Narpay	19,7	113,1
Payariq	27,5	112,8
Pastdarg'om	37,2	111,2
Paxtachi	14,7	115,5
Samarqand	34,9	122,8
Nurobod	15,8	109,4
Urgut	48,6	112,1
Toyloq	22,1	115,3


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)

2024-yilning yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **554,0** mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **136,2 %** ni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)

2024-yilning yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **223,1** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	155,8	129,9
Kattaqo'rg'on sh.	3,1	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	2,8	107,6
Bulung'ur	3,2	110,7
Jomboy	4,2	112,4
Ishtixon	3,2	106,4
Kattaqo'rg'on	6,3	109,8
Qo'shrabot	3,3	102,3
Narpay	2,8	105,2
Payariq	3,1	106,5
Pastdarg'om	6,7	118,1
Paxtachi	1,2	105,8
Samarqand	6,8	108,8
Nurobod	9,9	108,7
Urgut	7,6	111,0
Toyloq	3,1	108,9

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)



2024-yilning yanvar-aprel

oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **264,1** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,7** % ni tashkil etgan.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	93,3	123,1
Kattaqo'rg'on sh.	7,5	105,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	8,1	112,9
Bulung'ur	6,6	113,2
Jomboy	8,0	113,3
Ishtixon	8,7	112,6
Kattaqo'rg'on	8,9	113,0
Qo'shrabot	5,9	112,6
Narpay	11,8	112,4
Payariq	20,8	114,2
Pastdarg'om	16,5	113,4
Paxtachi	12,2	113,5
Samarqand	19,8	114,7
Nurobod	7,3	130,3
Urgut	19,1	110,9
Toyloq	9,6	113,6


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)

2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2024-yilning ushbu davrida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **408,9** mlrd. so'mga oshib, **555,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-aprel oylari)




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-aprel oylari)




2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **181,2** mlrd. so'mga oshib, **290,9** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yilning yanvar-aprel** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **41,6** foizni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-aprel oylari)




2024-yilning yanvar-aprel oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **302,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2023-yilning yanvar-aprel** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,4** % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-aprel oylari)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	82,1	108,5
Kattaqo'rg'on sh.	8,8	108,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	13,4	107,6
Bulung'ur	9,9	108,5
Jomboy	16,0	108,5
Ishtixon	14,8	107,6
Kattaqo'rg'on	16,7	108,6
Qo'shrabot	8,5	108,2
Narpay	14,6	108,4
Payariq	14,0	108,5
Pastdarg'om	24,3	108,2
Paxtachi	8,6	107,6
Samarqand	24,5	108,7
Nurobod	7,2	107,4
Urgut	23,7	108,9
Toyloq	15,7	108,5

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-aprel oylari)



2024-yilning yanvar-aprel oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **173,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.